



IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONNING FASHIZM USTIDAN QOZONILGAN G'ALABANI TA'MINLASHGA QO'SHGAN HISSASI

Zokirjonov Mirzohid Shuhrat o'g'li

“Shon-Sharaf” davlat muzeyi kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Insoniyat o'z taraqqiyotining muayyan bosqichlarida urushlarni ham o'z boshidan kechirib kelgan. Insoniyat XX asrning o'zida ikkita jahon urushini o'z boshidan kechirdi. Biroq son sanoqsiz behisob qurbonlar berilgan hamda ommaviy qirg'in qurollari ishlatilgan urush bu Ikkinchi jahon urushi bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi yuz millionlab begunoh insonlarning halok bo'lishiga olib kelgan urush sifatida tarixda insoniyat fojeasi sifatida kirdi. Ayni vaqtda bu urush eng dahshatli va qonli urush sifatida tarixda qoldi.

Ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlaridanoq butun SSSRda jumladan O'zbekistonda ham ommaviy safarbarlik e'lon qilindi. Urush boshlangani munosabati bilan SSSR rahbariyati sovet xalqiga murojaat bilan chiqib, dushmanni tor mor qilinishini va g'alabaga erishilishi haqida Stalin nutq so'zlab SSSRning tarkibidagi barcha xalqlarni fashizmga qarshi kurashga chaqirdi.

Tayanch so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, O'zbekiston, harbiy komissarlik, O'rta

Osiyo harbiy okrugi, xotira va qadrlash kuni. Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan tarixiy G'alabani ta'minlashda ko'pmillatli O'zbekiston xalqining qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Bugun tinch ozod va farovon hayotga yetib kelishda ota bobolarimiz ko'rstgan insoniylik, mardlik va jasorat na'munalari biz uchun chinakam hayot maktabidir. Bugungi kunda fashizmga qarshi kurashda halok bo'lgan yuz minglab Vatandoshlarimizning so'nmas xotiralarini yod etib, ularning ruh poklariga hurmat bajo keltirish biz uchun ham qarz, ham farzdir.



Unib o'sib kelayotgan yosh avlodimiz fashizm balosiga qarshi kurashda jasur ajdodlarimiz ko'rsatgan mardlik na'munalarini aslo yodidan chiqarmasligi kerak.

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Insoniyat hayotining shakllanish tarixi davomida urushlar to'xtagan emas. Mana bugun ham dunyoning u yoki bu mintaqasida urush harakatlari bo'lib turmoqda. Xo'sh Ikkinchi jahon urushining sabablari nimalardan iborat edi.

Birinchidan: Birinchi jahon urushi (1914-1918-yillar)dagi mag'lubiyat natijasida Germaniya uchun og'ir bo'lgan, 1919-yili imzolangan Versal tinchlik shartnomasining shartlaridan fashistlarning noroziligi;

Ikkinchidan: buyuk davlatlarda imperializm va militarizm g'oyalarining tarqalishi, shu jumladan Adolf Gitlarning nemis milliy sotsional g'oyalari va siyosatining amalga oshirilishi;

Uchinchidan: Versal-Vashington tizimining mustahkam emasligining oqibatlar.

To'rtinchidan: Jahon iqtisodiy inqirozi. Ikkinchi jahon urushining asosiy sabablaridir. Ikkinchi jahon urushi dunyoning 61 ta davlatini o'z domiga tortgan. Vaholanki urushgacha bo'lgan davrda dunyo aholisining 80 foizi urushga tortilgan davlatlarda istiqomat qilar edi. Armiya saflariga esa 110 million kishi safarbar qilindi¹. Ikkinchi jahon urushi (1939-1945-yillar) 1939-yil 1-sentabr kuni Germaniyaning Polshaga hujumi va Buyuk Britaniya hamda Fransiyaning Germaniyaga qarshi urush e'lon qilishi bilan boshlanib ketgan².

SSSR xalqlarining Gitler Germaniyasi va uning Yevropadagi ittifoqchilariga qarshi olib borgan urushi tarix sahifalarida Ikkinchi jahon urushi nomi bilan kirgan. Berilgan talofatlar evaziga Sobiq Ittifoq fashizm ustidan g'alaba qozona oldi. Biroq bu g'alabalarga osonlikcha erishilmadi³. Gitler mashhur notiq bo'lganligi bois harbiy tayyorgarlikni

¹ Lafasov M. Jahon Tarixi (1918-2008-yillar) Toshkent Turon Iqbol 2010 B. 128

² Ветте В. Война на уничтожение: вермахт и хлокост \\\ Скепис, 1997

³ Кофф Г.Л. Версии гибели Советской сумбарини Л 16. М., 2014 С. 45-46



juda qisqa muddatda yakunlashga erishdi. 1940-yili esa Gitler qo'shinni ruhlantirish maqsadida ularga qaratib shunday degan edi "Butun dunyoni zabt etuvchi askarlar, biz butun mintaqani zabt etib, o'z hukmronligimizni o'rnatimiz". Mamlakatda harbiy texnikalarni ishlab chiqarish tez su'ratlar bilan amalga oshirila boshlandi⁴. Masalan Germaniya 1937-yili 1000 ga yaqin harbiy samolyotni ishlab chiqargan bo'lsa, 1938-yili esa 3750 ta harbiy samolyotni ishlab chiqaradi va 1939-yili esa 4733 ta harbiy samolyotni ishlab chiqardi. Qo'shnlarning soni esa 104.218 000 kishidan 3.754. 104. 218 million kishiga yetkazildi⁵. Zotan SSSR va Germaniya o'rtasida imzolangan o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnoma tub manfaatlar yo'lida bir parcha qog'oz bo'lib qoldi⁶. Germaniya allaqachon Sovet davlatiga qarshi urushga tayyorlanmoqda edi⁷. 1940-1941-yillar davomida A.Gitler rahnamoligida SSSRga qarshi "Barbaros" nomli urush rejasi ishlab chiqila boshlandi, mazkur rejada SSSRni qisqda muddatda tor mor keltirish, uning shaharlarini birin ketin bosib olish mo'ljalnagan edi⁸. Shubhasiz bu ikki davlat o'rtasida urushga tayyorgarlik ishlari boshlanib ketdi⁹.

Ko'rinib turibdiki, fashistlar Germaniyasi SSSRga qarshi allaqachon urushga tayyorlanib kelmoqda edi¹⁰. Hattoki mamlakatda umumiy safarbarlik e'lon qilinib qo'shinlar jangovar holatga keltirildi¹¹. Nemis fashist bosqinchilari 1941-yil 22-iyun kuni erta tongda urush e'lon qilmasdan turib tinch aholi aholi yashayotgan SSSR hududiga bostirib kiradi. Fashistlar Germaniyasi hamda uning satelit ittifoqchilari

⁴ Дашичев В.П. Банкротство стратегии Германского фашизма.-М.: Наука., 1973

⁵ Колпакиди А.И. ГРУ в Великой Отечественной войне М.: Яуза ; Эксмо, 2010 С. 608

⁶ Айхольц Д. «Цели Германии в войне против СССР» \ Новая и новейшая история 2002

⁷ Фролов М. И. Великая Отечественная война (1941-1945 гг). В немецкой историографии.- СПб.: ЛГУ им А.С. Пушкина 2008 С. 132

⁸ Миллер А. И. Устои « глобальной» мемориальной культуры \ Россия в глобальной политике М., 2024 С 68-81

⁹ Ziyoyev H.Z. O'zbekiston Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida Toshkent 2015 B. 31-36

¹⁰ https://t.me/www_star_mediya.ru

¹¹ Мельтюхов М.И. Упущенный шанс Сталина (1939-1941 гг) М., 2024 С 45-46



Italiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya xoinona ravishda SSSRga qarshi chiqib Germaniya fashitlarini qo'ab quvvatladilar¹². Urush davridagi kuchlar nisbati Germaniya va uning ittifoqchilarida qo'shin 8.5 million kishini tashkil etgan. SSSRda esa 26.680 mingdan ziyod ofitser va soldat, 3500 ta to'p va minomyot, 1475 ta tank, 1433 ta samolyot hamda 220 000 dan ortiq kishini o'z ichiga olgan, harbiy flotdan iborat qo'shinni g'arbiy chegaralarga joylashtirgan edi¹³. Ikkinchi jahon urushining dastlabki oylaridanoq nemis-fashist bosqinchilari SSSRning shaharlarini birin ketin bosib ola boshladilar¹⁴. Leningradni 872 kun blokada (qamal) qildilar, Moskvaga yaqinlashib kela boshladilar va Jitomir shahriga xavf sola boshladi. 100 000 dan ortiq ofitser va soldatlar nemis fashist bosqinchilariga asir tushdi¹⁵. Urushning boshlangani munosabati bilan 22-iyun kuni Sovet hukumati mamlakat xalqiga murojaatnoma ishlab chiqidi va murojaatnoma o'sha kuniyoq ijro etildi¹⁶. Urush boshlangani munosabati bilan 1941-yil 22-iyun kuni SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining "SSSRda ommaviy safarbarlik e'lon qilish to'g'risida"gi farmoni qabul qilinib unga binoan mamlakatda ommaviy safarbarlik e'lon qilindi. Barcha moddiy va ma'naviy kuchlar davlat mudofaasiga jalb qilindi. Urush boshlangani munosabati bilan Sobiq Ittifoqning barcha harbiy okruglarida jangovar safarbarlik ishlari olib borildi¹⁷. Xususan SSSRning Leningrad, Xarkov, Kiyev, Odesa, Ural, Sibir, Arxangelsk, Privoloye, Shimoliy Kavkaz va Zakavkazy, O'rta Osiyo harbiy okruglarida urushning dastlabki kunlaridanoq harbiy xizmatga, qizil armiya

¹² Barber J. Harrison M. Patriotik War (1941-1945-year) \ The history of Russiya: in 3 Vol \ Ed.by Gambridge Press 2006 P 217-242

¹³ Лидел Гарт Б. Н. Стратегия Второй мировой войны // История военного искусства \ Под ред С. Переслегина М., СПб Аст фантастика 2003 С. 245-364- 510

¹⁴ Ильинский И.М. Великая Победа наследие и наследники Умение, Понимание и Знание - 2005 С. 5-18

¹⁵ Гордиенко А.Н. Командиры Второй мировой войны - Мн., 1997-1998 Т 1-2

¹⁶ Караткуев М.И., Фролов М.И. 1939-1945: Взгляд России и Германии.- СПб.: СПб «Павел» ВОГ 2006 С.388 500 экз

¹⁷ <https://rg.ru>



safiga majburiy safarbarlik qilish ishlari amalga oshirildi¹⁸. Shuningdek urushning dastlabki oylaridanoq SSSR tarkibiga kirgan respublikalar, viloyatlar, shaharlar, okruglar jumladan O'zbekiston SSR xalqi ham urushga jalb qilindi¹⁹. Natijada O'zbekiston xalqining boshiga og'ir kulfatlar tushdi. Shuni alohida takidlash lozimki, urush harakatlarining boshlanishi Partiya va Sovet hukumatining o'z vaqtida ko'rgan chora-tadbirlari mamlakat hayotining barcha jabhalarini harbiy izga tushirdi²⁰. Urush boshlangani to'g'risidagi shum xabar kelishi bilanoq O'zbekistonning barcha viloyatlarida, shaharlarida, tumanlarida mitinglar o'tkazilib o'qituvchilar, o'quvchilar, ziyoliliylar, talabalar qatnashib tengsiz janglarda dushman ustidan g'alaba qozonishga va Vatanni fashist bosqinchilaridan himoya qilishga mitinglar bo'lib o'tdi²¹. 1941-yil 29-iyun kuni SSSR Xalq Komissarlari Kengashi va VKP (b) MQ mahsus dekret qabul qilindi. Mazkur dekretda urush mamlakatdagi ahvolni o'zgartirib yuborganligi va Vatan jiddiy xavf ostida qolganligi kuchli mudofaa uchun salohiyat jalb qilinishi muhim ahamiyat kasb etishi belgilangan²². Mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va harbiy sohaga rahbarlik qilish uchun 1941-yil 30-iyun kuni VKP(b) MQ Bosh kotibi va SSSR Xalq Komissarlari Kengashi raisi I.V. Stalin boshchiligida SSSR Davlat Mudofaa Qo'mitasi (DMQ) tashkil qilindi²³. Boshlangan urush sharoitida sovet qo'shinlariga rahbarlik qilish uchun Stalin boshliq favqulodda organ Oliy Bosh Qo'mondonlik Qarorgohi tashkil qilindi. 8-avgust kuni Stalin SSSR Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh Qo'mondoni va SSSR Mudofaa xalq komissari lavozimlarini qabul qildi²⁴. Haqiqatda ham barcha muhim

¹⁸ [https://t.me: \ www_aif.ru](https://t.me/www_aif.ru)

¹⁹ Usmonov Q. Sodiqov M. O'zbekiston Tarixi (1917-1991) Toshkent Sharq matbaa ijodiy matbaa kompaniyasi Bosh tahririyati 2010 B.135

²⁰ Гончаров Г.А. Мобилизация в СССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг) [https://t.me \ cyberleninka.ru](https://t.me/cyberleninka.ru)

²¹ O'sha betdan

²² [https://t.me \ www_rg.ru](https://t.me/www_rg.ru)

²³ Mualliflar jamoasi O'zbekiston Tarixi 2-kitob (1939-1991-yillar) Toshkent O'zbekiston 2019 B.8-10

²⁴ Jo'rayev N. Karimov Sh. O'zbekiston Tarixi 2-kitob Toshkent Sharq 2011 B.465



harbiy-siyosiy ma'salalarda qarorlar qabul qilish unga topshirilgan edi. Urush yillarida respublikaga rahbarlik qilib kelgan O'zbekiston Kompartiyasi MQ birinchi kotibi Usmon Yusupovich Yusupov (1900-1966) o'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurashga safarbar qilish ishlariga bosh qosh bo'ldi. Shuningdek o'sha davrda O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi raisi lavozimida Yo'ldosh Oxunnoboyev (1885-1943) hamda O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashi raisi lavozimida Abdujabbor Abdurahmonov faoliyat yuritganlar²⁵.

Ma'lumki 1926-yil 4-iyun kuni O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston hududlarini qamragan O'rta Osiyo harbiy okrugi (SAVO) tashkil etilgan. Ikkinchi jahon urushi davrida O'rta Osiyo harbiy okrugi qo'shinlarining qo'mondoni lavozimida komkor keyinchalik general –polkovnik I. R. Apanasenko (1938-1941),

general mayor S.G. Trubetskoy (1941-1945-yillar) faoliyat yuritib dushman ustidan g'alaba qozonishda beqiyos hissa qo'shdilar²⁶.

Urushning dastlabki kunlarida harbiy komissarliklarga aholidan frontga yuborishni so'rab 32 mingdan ortiq murojaat kelib tushgan barcha viloyat, tuman va shahar harbiy komissarlari harbiy xizmatga majbur bo'lgan kishilarni qizil armiyaga safarbar qilish ishlari bilan shug'ulandilar²⁷. O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun jangchilar va zobitlarni tayyorlaydigan o'choqqa aylantirildi²⁸.

Ayni vaqtda O'zbekiston hukumati va Vatanparvar kuchlar milliy harbiy qismlarni tashkil qilish tashabbusi bilan chiqdilar²⁹. Mazkur okrug frontga 109 ta diviziya tuzib jo'natdi³⁰.

²⁵ Shu betdan

²⁶ Мильбах В.С. Политические репрессии в командном начальственном составе Средне Азиатский Военный Округ М., 2019 С. 340

²⁷ Sharopov A O'zbekiston Tarixi Universal Qo'llanma Akademnashr 2013 B. 135

²⁸ Shu betdan

²⁹ <https://t.me/aktualno.uz>



Bundan tashqari O'rta Osiyo harbiy okrugi tomonidan harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh Qo'mondonlik qarorgohining zaxirasiga 86 ta diviziya yuborildi³¹. Urushning ilk kunlaridanoq O'zbekistonda xalq lashkarlarining otryadlari tuzila boshlandi³². Davlat Mudofaa Qo'mitasining 1941-yil 17-sentabr kunidagi "SSSR fuqarolariga harbiy ishni yoppasiga o'rgatish to'g'risidagi qarorida 16 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan fuqarolarga majburiy harbiy ta'lim berish yuklatildi³³.

SSSRning qo'liga qurol olishga tayyor bo'lgan erkak fuqarolari o'z Vatannini himoya qilishga tayyor turishi uqtirildi, 1941-yil 1-oktabriga kelib O'zbekistonda 35 ta majburiy harbiy ta'lim punktlari faoliyat yuritgan bo'lib ular armiya uchun qo'mondonlik tarkibini tayyorlash bilan shug'ullangan³⁴.

1941-1942-yillarda 2 million 500 000 kishi mazkur bilim yurtlarni bitirib chiqqan. O'zbekistonda 62, 64, 90 o'qchi diviziyalari, 21-44 kavaleriya diviziyalari va 128 Turkiston tog' o'qchi diviziyasi kabi harbiy qismlar tuzilib ular Ikkinchi jahon urushining turli janglarda qatnashib, Moskvadan Berlingacha bo'lgan masofani bosib o'tdilar³⁵.

Ayniqsa O'rta Osiyo harbiy okrugida tashkil qilingan 90-94 alohida o'qchilar polklari Moskva ostonalarida jasorat ko'rsatdilar. Xususan general I.Panfilov, snayper Zebo G'aniyeva, kichik leytenant Sharof Rashidov jasorat ko'rsatdilar³⁶. Davlat Mudofaa Qo'mitasi 1941-yil 13-noyabr kuni "Milliy harbiy qismlar tashkil qilish

³⁰ <https://www.podrobno.ru>

³¹ Абраров С.А. Узбекистан в годы Великой Отечественной войны Пермский государственной архив <https://www.prmgaspi.ru>

³² <https://www.mk.ru>

³³ <https://t.me/dzen.ru>

³⁴ <https://urfu.ru>

³⁵ https://t.me/Tarix_Muarrix_kutubxonasi

³⁶ O'zbekistonning yangi tarixi 2-kitob Toshkent Sharq 2000 B. 433



to'g'risida"gi qarorni qabul qildi. Mazkur qarordan kelib chiqib O'zbekistonda 5 ta kavaleriya diviziyalari hamda 9 ta alohida o'qchilar brigadalari tashkil qilindi³⁷.

Ikkinchi jahon urushida O'zbekistonliklarning ishtiroki haqida mustaqil O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti Islom Karimov shunday degan edi: "Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g'oya yoki kimning shiori ostida bo'lib o'tmasin o'z Vatannining yorug' kelajagi va musaffo osmoni uchun janglarda halok bo'lgan yurtdoshlarimizning xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham farz, ham qarzdir³⁸.

1-Prezidentimizning tashabbuslari bilan Ikkinchi jahon urushida xolidan habar olish yuzasidan boshlangan ishlar bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonlaridan ham amalga oshirilib kelinmoqda³⁹.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 16-aprel kunidagi PQ 3667-sonli "Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindiki unga binoan Ikkinchi jahon urushida qatnashgan yurtdoshlarimizning xotirasini abadiylashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov rahbarligida ishchi guruh tashkil qilinib uning vazifalari belgilab berildi⁴⁰.

Xulosa

Ikkinchi jahon urushi 1939-1945-yillarda sodir bo'lib yuz millionlab insonlarning halok bo'lishiga, oilalarning boquvchisidan ayrilib qolishiga, bolalarning yetim bo'lib qolishiga olib kelgan urush hisoblanadi.

³⁷ Shu betdan

³⁸ Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q Toshkent O'zbekiston 1996 B. 81

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligini nishonlash chora tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 23-oktabr kunidagi PQ 4075 –sonli qarori \ \ https://t.me/mobile_lex.uz.aspx/pages

⁴⁰ https://mobile_lex.uz



Mazkur urushda ommaviy qirg'in qurollari ishlatilganligi va behisob qurbonlar berilganligi bois tarix sahifalariga insoniyat fojeasi sifatida kirdi. Ikkinchi jahon urushi Germaniyaning Polshaga hujumi bilan boshlangan bo'lib butun dunyoni qamrab oldi.

Tez orada 1941-1945-yillar oralig'ida esa Sovet German urushi sodir bo'ldi. Mazkur urush SSSRning Germaniyaga qarshi olib borgan urush harakatlari tarixda Ikkinchi jahon urushi nomi bilan kirgan bo'lsa Rossiya tarixshunosligida Ulug' Vatan urushi nomi bilan kirgan. Urushning dastlabki kunlaridanoq SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1941-yil 22-iyun kunidagi "Mamlakatda ommaviy harbiy safarbarlikni e'lon qilish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi.

SSSR Xalq Komissarlari Kengshi va VKP(b) MQning 1941-yil 29-iyun kunidagi mahsus dekretida ham urush mamlakatdagi ahvolni o'zgartirganligi va Vatan jiddiy xavf ostida qolganligi qayd etilib "Hamma narsa front uchun" va "Hamma narsa G'alaba uchun", Vatan uchun shiorlari ostida mamlakatda ommaviy safarbarlik e'lon qilinib, mamlakatning barcha kuchlari, iqtisodiyot va madaniyat sohalarida xizmat qilayotgan xodimlar davlat mudofaasi yo'lida fidokorona mehnat qilib dushman ustidan qozonilgan g'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shdilar. O'zbekiston xalqining mard yigit va qizlari jang maydonlarida jasorat ko'rsatib nemis-fashist bosqinchilariga qarshi janglarda qatnashdilar. Jumladan O'zbekistonning 1-general Sobir Umarovich Raximov,

General mayor Mullajon Uzoqov, partizan Mamadali Topiboldiyev, Xalloq Aminov, Tojiali Boboyev, Sulton Jo'ra, general Ivan Yefimovich Petrov, shifokor Muqaddas Ashrapova shular jumlasidandir.